

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2021.I.16.03. RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI

MALLABOYEV ANVARJON SOTVOLDIYEVICH

**TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT
BARQARORLASHUVINING
MAKROIQTISODIY JIHATLARI**

**08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of the Dissertation Abstract of doctor of philosophy (PhD) in
Economics Sciences**

Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich

Transformatsiyalashuv sharoitida milliy iqtisodiyot barqarorlashuvining
makroiqtisodiy jihatlari.3

Маллабоев Анваржон Сотволдиевич

Макроэкономические аспекты стабилизации национальной экономики в
условиях трансформации25

Mallaboev Anvarjon Sotvoldievich

Macroeconomic aspects of the stabilization of the national economy in the
conditions of transformation49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works53

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2021.I.16.03. RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI

MALLABOYEV ANVARJON SOTVOLDIYEVICH

**TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT
BARQARORLASHUVINING
MAKROIQTISODIY JIHATLARI**

**08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025-yil

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1. PhD/Iqt.3689 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat texnika institutida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash web-sahifasida ([www.https://tsue.uz/](https://tsue.uz/)) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

G'ulomov Saidahrur Saidahmedovich
O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi,
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Salimov Bahtiyor Tadjiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03, raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "19" 06 soat 14 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-71, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu.@.tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida tanishish mumkin. (1681 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: (100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu.@.tdiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 3 06 kuni tarqatildi.
(2025-yil 3 06 dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

B.D. Xajiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Transformatsiyalashuv sharoitida jahon iqtisodiyoti va milliy iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik mustahkamlanib, milliy iqtisodiyotning barqarorlashuvi global iqtisodiy jarayonlarda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot tajribasi har qanday mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sish va tarkibiy transformatsiyalashuv jarayonlari o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjudligini ko'rsatadi. "Barqaror rivojlanishga erishgan mamlakatlarda tarkibiy transformatsiyalashuv darajasi yuqori bo'lib, jadal iqtisodiy o'sishga kapital va mehnat resurslarini samaradorligi nisbatan yuqori bo'lgan sektorlarga transfer qilish mexanizmlarini takomillashtirish hisobiga erishilmoqda"¹. "Keyingi yarim asr mobaynida Sharqiy Osiyo mamlakatlarida kuzatilgan jadal iqtisodiy o'sish, ushbu iqtisodiyotlardagi muvaffaqiyatli amalga oshirilgan tarkibiy transformatsiyalashuv jarayonlari bilan bog'liqdir"². Milliy iqtisodiyotda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning muvozanatda bo'lishi, institutsional islohotlarning samaradorligi va tashqi iqtisodiy aloqalarning diversifikatsiya qilinishi jahon bozorlaridagi noaniqliklarga nisbatan barqarorlikni ta'minlaydi. Shu jihatdan, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi nafaqat ichki iqtisodiy muvozanatni saqlash, balki xalqaro iqtisodiy tizimning izchilligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahondagi global integratsiyaning kengayishi va transformatsiyalashuv sharoitida milliy iqtisodiyot barqarorlashuvining makroiqtisodiy jihatlari tadqiqiga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar kengayib bormoqda. Iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflyatsiya darajasi, ishsizlik ko'rsatkichlari, davlat byudjeti va tashqi savdo balansining barqarorligini tahlil qilish, investitsiya muhitining yaxshilanishi, moliyaviy sektorda barqarorlikni ta'minlash, valyuta siyosati va kursining o'zgaruvchanligiga nisbatan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish hamda tashqi iqtisodiy ta'sirlarga nisbatan milliy iqtisodiyotning adaptiv salohiyatini oshirish kabi yo'nalishlar ustuvor tadqiqot sohalari sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu yo'nalishlar milliy iqtisodiyotda uzoq muddatli barqarorlikka erishish va global iqtisodiy integratsiya jarayonlarida samarali ishtirok etish imkonini beradi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor maqsadlaridan biri sifatida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish belgilangan³. Ushbu yo'nalishda sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya

¹ Kuznets, S. (1973), (Modern Economic Growth: Findings and Reflections), The American Economic Review, 63 (3). p.249. UN (2006), Structural Change and Sectoral Growth, World Economic and Social Survey 2006, Chapter II. p.29. UNIDO (2009a). Structural Change and Sectoral Growth in Selected East Asian Countries, Ed. Nobuya Haraguchi, Gorazd Rezonja, Working Paper.

² M.Keskin, E.Çakmak, D.Özdemir. Ekonomilerde yapısal dönüşüm ve belirlileyicileri: seçilmiş gelişmiş ve gelişmekte olan ülkeler üzerine bir panel veri analizi.170-171 ss

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF–60-son. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

jarayonlarini yakunlash, sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish, yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va diversifikatsiya qilish, mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish asosiy vazifalar qatorida ko'rsatilgan. Ko'rinib turganidek, global miqyosdagi barqaror rivojlanish maqsadlari hamda milliy iqtisodiyotdagi islohotlarning yuqorida keltirilgan barcha yo'nalishlari mamlakatda transformatsiya hamda sanoatlashuv jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Milliy iqtisodiyotda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, aholi turmush farovonligini yaxshilash, bandlik darajasini oshirish kabi vazifalarni amalga oshirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy transformatsiya va sanoatlashuv jarayonlarini ilmiy-nazariy tadqiq etish, sanoat siyosatini takomillashtirishni taqozo etmoqda va ushbu tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 12-oktyabrdagi PF-169-son "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2024-yil 15-yanvardagi PQ-15-sonli "Elektronika sanoatining ishlab-chiqarish va eksport salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-fevraldagi 92-son "O'zbekiston Respublikasining 2024-yil I choragiga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda ushbu sohadagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiy adabiyotlar hamda ilmiy nashrlarda tarkibiy transformatsiyalashuv va sanoat siyosatining ilmiy-uslubiy jihatlarini bir qator xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan o'rganilgan.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy transformatsiyalashuv va sanoatlashuvning nazariy-konseptual asoslari A.Fisher, C.Clark, H.Singer, R.Preisch, N.Kaldor, P.N.Rosenstein-Rodan, R.Nurkse, A.O.Hirschman, A.Hamilton, F.List⁴, kabi taniqli

⁴ Fisher A. (1939). Production, primary, secondary and tertiary. Economic Record, 15 (1), 24-38.; Clark C. (1940). The Conditions of Economic Progress: Macmillan and Company, limited; Singer H.W. (1950). The Distribution of Gains between Investing and Borrowing Countries. The American Economic Review, 40 (2), 473-485.; Preisch R. (1962). The Economic Development of Latin America and Its Principal Problems: UN.; Kaldor N. (1966). Causes of the slow rate of economic growth of the United Kingdom: an inaugural lecture. Cambridge University Press: England; Rosenstein-Rodan P.N. (1943), "Problems of Industrialization of Eastern and South-Eastern Europe", The Economic

xorijlik olimlar tomonidan o'rganilgan. Sanoat siyosatining nazariy-uslubiy asoslari K.Aiginger, J.Pelkmans, J.E.Stiglitz, D.Rodrik, R.N.Ballance, H.J.Chang, A.Lindbeck, P.R.Ferguson, G.J.Ferguson, S.Lall⁵ kabi xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

O'zbekistonda transformatsiyalashuv, sanoatlashtirish va sanoat siyosatiga oid ilmiy tadqiqotlar S.E.A'zam, N.B.Xolmatov, E.F.Trushin, L.L.Olenitskaya, Sh.S.Jo'rayev, A.G'.Sharobiddinov, N.F.Abdullayeva, A.F.Rasulev, D.D.Abdurasulova, N.To'xliyev, Sh.B.Tashpulatov, N.G.Muminov⁶ning ishlarida o'rganilgan.

Shunga qaramasdan, yuqorida nomlari keltirilgan ilmiy tadqiqotlarda iqtisodiy munosabatlar tizimida O'zbekistonda tarkibiy transformatsiyalashuv muammolarining o'ziga xos jihatlari, ishlab chiqaradigan sanoatdagi tarkibiy o'zgarishlarning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'siri yetarli darajada o'rganilmagan. Transformatsiya jarayonlari keng qamrovli va ko'p qirrali ekanligi sababli ushbu sohada o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Muammoning dolzarbligi, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi va iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha tadqiq etilmaganligi tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga sabab bo'ldi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Andijon davlat texnika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Journal, June-September 1943, Volume 53. Number 210/211.; Nurkse R.Op.sit.; Nurkse R. Ekuilibrium and Growth. The University Press. 1971; Hirschman A.O. (1958), Strategy of Economic Development, New Haven, Conn: Yale University Press; Hamilton A. Final version of the report on the subject of manufactures, (5 December 1791). founders.archives.gov/documents/Hamilton/01-10-02-0001-0007/; List F. The National System of Political Economy, (1841).

⁵ Aiginger K. "Industrial Policy:" A Dying Breed or A Re-emerging Phoenix, Journal of Industry, Competition and Trade, Volume: 7, No: 3-4, 2007; Pelkmans J. "European Industrial Policy", International Handbook on Industrial Policy; Stiglitz J.E. "Development Policies in a World of Globalization", New International Trends for Economic Development; Rodrik D. One Economics Many Recipes Globalization, Institutions, and Economic Growth, UK, Princeton University Press, 2009; Ballance R.N. International Industry and Business Structural Change, Industrial Policy and Industry Strategies, UK, Allen and Unwin Incorporation, 1987; Chang H.J. "Industrial Policy: Can We Go Beyond An Unproductive Confrontation?", Plenary Paper for Annual World Bank Conference on Development Economics, 2009, Chang.pdf, 20/09/2009; Lindbeck A. "Industrial Policy as an Issue in the Economic Environment", World Economy, Volume: 4, No:4,1981.; Ferguson P.R., Ferguson G.J. Industrial Economics Issues and Perspectives, US, New York University Press, 1994. Lall S. "Selective Industrial and Trade Policies in Developing Countries: Theoretical and Empirical Issues", University of Oxford Queen Elizabeth House Working Papers, Working Paper No:48, 2000.

⁶ Аъзам С. Трансформация промышленной политики Узбекистана в условиях глобализации. Монография. -Т.: "Ilm-Ziyo- zakovat" 2018.-340 б.; Holmatov N.B. Milliy ishlab chiqarishni sanoatlashtirishning nazariy asoslari va qonuniyatlari. Diss.i.f.n. -T., 2003.-149 b.; Трушин Э. Ф. Экспортноориентированное развитие экономики в условиях перехода к рынку (на примере Республики Узбекистан). Дисс.к.э.н. -Т.: 1999. -164 с.; Оленицкая Л.Л. Конкурентоспособные стратегии экономического развития новых индустриальных стран Азии и возможности их адаптации к условиям Узбекистана. Дисс.к.э.н. -Т.: 2006. -151 с.; Jo'rayev Sh.S. O'zbekiston sanoati rivojlanishining hududiy xususiyatlari, diss.g.f.f.d. (PhD) -T.: 2019. -136 b.; Sharobiddinov A.G'. Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekiston Respublikasi sanoat majmuida raqobatni rivojlantirish. Diss.i.f.n. -T.: 2010-148 b.; Абдуллаева А.Н Эффективность промышленной политики Японии и возможности её использования в Узбекистане. Дисс.к.э.н. -Т.: УМЭД, 2007.-175 с.; Расулев А.Ф. Экспортная ориентация национальной экономики в условиях рыночной трансформации (на материалах Республики Узбекистан). Дисс. д.э.н -Т.: 1996. -279 с.; Абдурасулова Д.Д. Рыночная трансформация экономической системы Республики Узбекистан в условиях глобализации мирового хозяйства. Автореферат дисс.к.э.н. -Т.: 2005.-25 с.; To'xliyev N. O'zbekiston iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. -T.: O'qituvchi. 1994-112 b.; Ташпулатов Ш.Б. Регулирование структурных преобразований как фактор макроэкономической стабильности экономики Узбекистана. Автореферат дисс.к.э.н. -Т.: 2005. -23 с.; Muminov N.G. Bozor munosabatlari shakllanish davrida O'zbekiston iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar: I.f.n. diss. avtoreferati. -T.: 2001. -21 b.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbekistonda tarkibiy transformatsiyalashuv mexanizmlarini takomillashtirish asosida barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

transformatsiyalashuv hamda sanoatlashuv jarayonlariga doir ilmiy-nazariy konsepsiyalarni guruhlash va tizimlashtirish asosida uning o‘ziga xos xususiyatlari va mexanizmlarini aniqlash;

ishlab chiqaradigan sanoat va uning tasniflanishi hamda jahon ishlab chiqaradigan sanoatidagi global tendensiyalarni tadqiq etish;

transformatsiyalashuv sharoitida sanoat siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini nazariy va uslubiy jihatdan asoslash;

O‘zbekistonda transformatsiyalashuv jarayonlari holatini baholash, tarkibiy o‘zgarishlar va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;

O‘zbekistonda sanoatlashuv jarayonlari rivojlanishining omillari, xususiyatlari va ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash;

xalqaro tasniflagichlar asosida O‘zbekiston ishlab chiqaradigan sanoatida tarkibiy transformatsiyalashuv jarayonlarini texnologik intensivlik mezonlari asosida baholash hamda milliy sanoatlashuv darajasini aniqlash;

jahon tajribasiga ko‘ra sanoatlashuv jarayoniga makroiqtisodiy siyosat orqali ta’sir etishning iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq etish;

sanoat siyosatini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini o‘rta uzoq muddatli istiqboldagi muqobil variantlarini ishlab chiqish;

milliy sanoat strategik tarmoqlarini rivojlantirishning zaruriy chora-tadbirlari va mexanizmlarini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekistonda milliy ishlab chiqarishning asosi hisoblangan sanoat tarmoqlari olingan.

Tadqiqotning predmetini barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlash maqsadida milliy iqtisodiyotdagi transformatsiyalashuv jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda tizimli yondashuv, solishtirish va qiyosiy tahlil, statistik kuzatish, analiz, sintez, dinamik qatorlari, iqtisodiy indekslar va korrelyatsion-regression tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Uslubiy yondashuvga ko‘ra “tarkibiy transformatsiya jarayoni” tushunchasining iqtisodiy mazmuni iqtisodiy o‘shish, samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida iqtisodiyotning tarmoqlari, sohalari va hududlari o‘rtasida resurslarni qayta taqsimlash, yangi texnologik asoslarga o‘tish, innovatsiyalarni keng joriy etish orqali amalga oshiriladigan uzoq muddatli, tizimli jarayon nuqtayi nazaridan milliy iqtisodiyotning sanoatlashuv darajasining aniqlanishi hamda tarkibiy transformatsiyalashuvning takomillashtirilgan uslubiyoti asoslangan;

iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi asosida ishlab chiqaradigan sanoat tarmoq tarkibini texnologik intensivligiga ko‘ra baholash orqali

yuqori hamda o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqlarni eksportdagi ulushini oshirish asosida milliy sanoat sifat tarkibini takomillashtirish taklifi asoslangan;

Milliy iqtisodiyotning sanoatlashuv darajasining Xalqaro sanoat standarti tasnifi (ISIC Rev.4) asosida ishlab chiqarish omillari intensivligiga ko'ra sanoat tarmoq tarkibi aniqlangan hamda tarkibiy transformatsiyalashuvning uslubiy jihatlari mamlakatlarning "sanoat hayot egri chizig'i" bo'ylab joylashuvi mezonlari asosida baholash orqali takomillashtirilgan;

O'zbekistonda ishlab chiqaradigan sanoatning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'sirini ekonometrik modellashtirish asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda tarkibiy transformatsiyalashuv jarayonlarining konseptual asoslari takomillashtirilgan, milliy iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida texnologik intensivligiga ko'ra ishlab chiqaradigan sanoat tarmoq tarkibini sifatli diversifikatsiyalash yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan;

O'zbekistondagi sanoatlashuv jarayonlarini Sharqiy Osiyoning yangi sanoatlashgan mamlakatlari bilan qiyosiy tarkibiy tahlili asosida sanoatlashuv jarayonlarining jadal rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan;

O'zbekiston ishlab chiqaradigan sanoati tarmoq tarkibi xalqaro sanoat tasniflagichi asosida texnologik intensivlik darajasiga ko'ra baholangan hamda yuqori va o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirishning samarali mexanizmlari taklif etilgan;

O'zbekistonda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqaradigan sanoatning istiqbolli tarmoqlarini rivojlantirish, eksportni geografik diversifikatsiya qilish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijasida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlarning rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanilganligi, shuningdek, zamonaviy statistik va ekonometrik tadqiqot usullaridan foydalanilganligi, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan uslubiy asoslar milliy iqtisodiyotda transformatsiyalashuv sharoitida strategik sanoat tarmoqlarini aniqlash, sanoat ishlab chiqarishini texnologik tarkibiga ko'ra baholashda qo'llash mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalaridan sanoatni rivojlantirishga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish, sanoat siyosatining nazariy-konseptual asoslarini shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tadqiqot natijalaridan O'zbekistonda milliy sanoatni o'rta va uzoq muddatli rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, ishlab chiqaradigan sanoatni rivojlantirishning institutsional asoslarini takomillashtirish, sanoat siyosati yordamida samarali va bosqichma-bosqich transformatsiyalashuvni

ta'minlash yuzasidan iqtisodiy dastur va loyihalarni ishlab chiqish, shuningdek, ta'lim jarayonida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

O'zbekistonda transformatsiyalashuv sharoitida milliy iqtisodiyot barqarorlashuvining makroiqtisodiy jihatlari bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "tarkibiy transformatsiya jarayoni" tushunchasining iqtisodiy mazmuni iqtisodiy o'sish, samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida iqtisodiyotning tarmoqlari, sohaları va hududlari o'rtasida resurslarni qayta taqsimlash, yangi texnologik asoslarga o'tish, innovatsiyalarni keng joriy etish orqali amalga oshiriladigan uzoq muddatli, tizimli jarayon nuqtayi nazaridan milliy iqtisodiyotning sanoatlashuv darajasining aniqlanishi hamda tarkibiy transformatsiyalashuvning takomillashtirilgan uslubiyoti bilan bog'liq taklifi O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi ish faoliyatiga tatbiq etilgan (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 24-iyundagi 9/01-12-13804-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy natijalar tarkibiy islohotlar hamda sanoatlashuv jarayonlarini jadallashtirishga doir amaliy ahamiyati yuqori bo'lgan va ilmiy asoslangan dasturlarni shakllantirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi asosida ishlab chiqaradigan sanoat tarmoq tarkibini texnologik intensivligiga ko'ra baholash orqali yuqori hamda o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqlarni eksportdagi ulushini oshirish asosida milliy sanoat sifat tarkibini takomillashtirish taklifi O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi ish faoliyatiga tatbiq etilgan (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 24-iyundagi 9/01-12-13804-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi ishlab chiqaradigan sanoat tarmog'ida yaratilgan mahsulotlarni texnologik intensivlik darajasiga ko'ra tahlil qilish, tarmoq mahsulotlari eksportini texnologik intensivligiga ko'ra optimallashtirish, yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirishga doir istiqbolli loyihalarni ishlab chiqish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirish hisobiga milliy sanoat ishlab chiqarishi va eksportini sifatli diversifikatsiya qilishga imkon yaratgan;

Milliy iqtisodiyotning sanoatlashuv darajasining Xalqaro sanoat standarti tasnifi (ISIC Rev.4) asosida ishlab chiqarish omillari intensivligiga ko'ra sanoat tarmoq tarkibi aniqlangan hamda tarkibiy transformatsiyalashuvning uslubiy jihatlari mamlakatlarning "sanoat hayot egri chizig'i" bo'ylab joylashuvi mezonlari asosida baholash orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi ish faoliyatiga tatbiq etilgan (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 24-iyundagi 9/01-12-13804-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar tahlilini amalga oshirish va milliy sanoatni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini aniqlashga zamin yaratgan;

O'zbekistonda ishlab chiqaradigan sanoatning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'sirini ekonometrik modellashtirish asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni

qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi Farmonining 2-ilovasidagi 45-, 47-, 48-moddalarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 24-iyundagi 9/01-12-13804-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi YaIM o'sish sur'atlarini 6 foiz, bunda sanoat mahsulotlari o'sishini 7 foizdan kam bo'lmagan darajada ta'minlash, mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish, sanoatning "drayver" sohasini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish borasidagi imkoniyatlarni aniqlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 26 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 11 ta ilmiy maqola, shundan 4 tasi xorijiy va 7 tasi mahalliy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 154 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Tarkibiy transformatsiya jarayonining nazariy va uslubiy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida tarkibiy transformatsiya jarayonlarining mazmuni, xususiyatlari va omillari yoritib berilgan. Shu bilan birga ishlab chiqaradigan sanoat (keyingi o'rinlarda IChS deb yuritiladi) va uning tavsiflanishi, jahon IChSidagi global tendensiyalar o'rganilib, ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Dissertatsiyada tarkibiy transformatsiyalashuv tushunchasi, unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va transformatsiyalashuv bosqichlari tizimli ravishda o'rganilgan. Tarkibiy transformatsiyalashuv jarayonlarida barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida iqtisodiyotdagi kapital va mehnat resurslarini samaradorligi nisbatan yuqori bo'lgan sektorlarga transfer qilish mexanizmlari bilan bog'liqdir. A.Smitning "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot" nomli fundamental asarida iqtisodiyotda sektorlarning nisbiy ulushi va iqtisodiy rivojlanish bosqichlari o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligi haqida gap boradi⁷. A.Fisher (1938) va K.Klark (1940) tomonidan ilgari surilgan "Uch sektor" modeli

⁷ Silva, E.G.ve Teixeira, A.C. (2006), Surveying Structural Change: Seminal Contributions and a Bibliometric Account, FEP Working Papers, p.232.

tarkibiy transformatsiyalashuvning dastlabki nazariy asoslarini tashkil etadi. Modelga ko'ra tarkibiy transformatsiyalashuv jarayonlari aslida iqtisodiy faoliyat va kapitalning uchta sektor (qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish) o'rtasidagi yangidan taqsimlanishidir.

Avstraliya ishlab chiqarish samaradorligi komissiyasi tarkibiy transformatsiyaga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bozor tizimiga bog'liq omillar va davlat aralashuviga bog'liq omillar sifatida ikki guruhga ajratadi⁸ (1-jadval).

1-jadval

Tarkibiy transformatsiya jarayonlarini yuzaga chiqaruvchi omillar⁹

№	Bozor tizimiga bog'liq omillar	Davlat aralashuviga bog'liq omillar
1	Texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari kengayib borishi bilan ma'lum vaqt davomida an'anaviy sektorlardan voz kechiladi, mavjud texnologik yutuqlardan foydalanish mumkin bo'lgan yanada modernizatsiyalashgan sektorlarda faoliyat yuritish samarali holatga keladi	Savdo va investitsiya sohasini liberallashtirish maqsadida, bir tomonlama boj ta'riflarini, import kvotalarini, ta'rifli va ta'rifsiz cheklovlarni kamaytirish, erkin savdo va investitsion muhitni qulaylashtiruvchi elastik tizimni yuzaga chiqarilishi
2	Uy xo'jaliklarining daromadlarida yuzaga kelgan ijobiy o'zgarishlar iste'molchilarning didi va tanlovlariga ta'sir ko'rsatadi	Davlat islohotlari va infratuzilmaga investitsiyalar, xususiylashtirish jarayonlari, bozorni erkinlashtirish maqsadida olib borilgan sanoat siyosati
3	Global ixtisoslashuv va xalqaro savdoning rivojlanishi yangi tovar bozorlarining paydo bo'lishiga va raqobat muhitining kuchayishiga sabab bo'ladi, natijada mamlakatlar eksport va import siyosatlarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ladi	Mehnat bozoriga qaratilgan islohotlar: masalan, ish haqi va mehnat sharoitlarining yaxshilanishi, ijtimoiy yordam va rag'batlantirish dasturlari, mehnat muhofazasi bilan bog'liq qonunchilikdagi o'zgarishlar kabilar shular jumlasidandir
4	Tabiiy resurslar zaxiralarida yuzaga kelgan o'zgarishlar (yangi konlarning o'zlashtirilishi yoki zaxiralarning tugashi)	Raqobat muhitini shakllantirish, monopoliyalar faoliyatini cheklash, soliq islohotlari va shu kabi boshqa barcha tartibga soluvchi islohotlar

Tarkibiy transformatsiyalashuv jarayonlarida iqtisodiyotdagi sanoatlashuv jarayonlari muhim o'rin tutadi. Tarkibiy transformatsiya jarayonlarida sanoatlashuvning o'rni va ahamiyati bilan bog'liq bir qator ilmiy konsepsiyalar ishlab chiqilgan (2-jadval).

Mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholining turmush farovonligini yaxshilanishida sanoatlashuv jarayonlari eng asosiy bosqichdir. Sanoatlashuv jarayonlari o'ziga xos hayot egri chizig'iga ega bo'lib, ushbu egri chiziq bo'ylab harakat davom etar ekan, sanoatlashuv va kapital jamg'arilishi jarayonlari tezlashib boradi. Sanoat hayot egri chizig'iga ko'ra, IChS tarmoqlari ishlab chiqarish omillari intensivligiga ko'ra mehnat talab, kapital talab, texnologiya talab va ilm talab kabi guruhlarga ajratilgan holda tasniflanadi.


⁸ Productivity Commission. (1998). Aspects of structural change in Australia. Research Paper.2.

⁹ Muallif ishlanmasi. Manba: Productivity Commission. (1998). Aspects of structural change in Australia. Research Paper.2.

**Transformatsiyalashuv sharoitida sanoatlashuv jarayonlariga doir ilgari
surilgan ilmiy konsepsiyalar¹⁰**

Ilmiy konsepsiya nomi	Ilmiy konsepsiya namoyandalari	Konsepsiyaning asosiy ilmiy Mushohadalari
“Kaldor qonunlari”	N.Kaldor	ICHS sektorini iqtisodiy o‘shishning lokomotivi sifatida baholagan. ICHS o‘shishi sur‘atlari va YaIM o‘shish sur‘atlari o‘rtasida yuqori ijobiy korrelyatsiya mavjudligini empirik tadqiqotlar asosida isbotlagan
“Katta turtki” (“Big push”) modeli	P.N.Rozenshteyn-Rodan	Ikkinchi jahon urushidan keyin Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi sanoatlashuv muammolari tahlil qilingan. Barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun bir necha tarmoqda bir vaqtning o‘zida investitsiyalar amalga oshirish g‘oyasi ilgari surilgan
“Rivojlanish qutblari” modeli	F. Perroks	Bozor sig‘imi, infratuzilmaning mavjud holati, xomashyoga yaqinlik, malakali ishchi kuchi mavjudligi v.b. omillarga ko‘ra ba‘zi hududlar rivojlanishda oldinda bo‘ladi, ya‘ni “rivojlanish qutblari” yuzaga chiqadi
“Xirshman” rivojlanish modeli	A.O. Xirshman	Sanoat tarmoqlari o‘rtasidagi kooperatsion aloqalarga katta e‘tibor qaratadi. Kooperatsion aloqalari yuqori bo‘lgan strategik tarmoqlarga qilingan investitsiyalar barcha tarmoqlarda iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlaydi
Zinger-Prebish konsepsiyasi	X.Zinger, R. Prebish	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va sanoat mahsulotlari eksport qiluvchi mamlakatlar o‘rtasidagi tashqi savdo sharoiti indeksi uzoq davrda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport qiluvchi mamlakatlar zarariga va sanoat mahsulotlari eksport qiluvchi mamlakatlar foydasiga o‘zgaradi

Biz tomonimizdan, ICHS tarmoqlarining sanoat hayot egri chizig‘i bo‘ylab joylashuvi o‘rganilgan. Unga ko‘ra vertikal o‘qda ishchilarning bir oylik ish haqi (AQSh dollarida), gorizontal o‘qda esa aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan milliy daromad ko‘rsatkichi joylashtirilgan (1-rasm).



1-rasm. Sanoat hayot egri chizig‘ida ICHS tarmoqlarining joylashuvi¹¹


¹⁰ Muallif tomonidan ishlangan.

¹¹ Muallifning tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan. Manba:Gürleşel, F. (2009). “Global Sanayi Eğilimleri ve Türkiye İçin Değerlendirme”. İstanbul Sanayi Odası Yayını, 31 s.

Ta'kidlash joizki, sanoat hayot egri chizig'i bo'ylab mehnat talab sektorlardan ilm talab sektorlarga o'tib borilgani sayin mamlakatlarning aholi jon boshiga daromadi bilan o'lchanadigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi ham ortib boradi. Mamlakatlar sanoat hayot egri chizig'i bo'ylab, IChSda mehnat talab, kapital talab, texnologiya talab va ilm talab sanoat tarmoqlarining ustuvorligiga ko'ra, sanoatlashuvning dastlabki bosqichida bo'lgan, sanoatlashayotgan, yangi sanoatlashgan va ilg'or sanoatlashgan davlatlar guruhlaridan biriga joylashadi (2-rasm).

Har qanday mamlakatning sanoat egri chizig'ida keyingi bosqichlarga o'tishi, IChSda texnologik jihatdan o'rta-yuqori va yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushidagi o'sishga to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda, sanoat potensialidan samarali foydalanish va sanoatni texnologik jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Quyidagi 2-rasmda O'zbekiston sanoatlashuvining dastlabki bosqichida bo'lgan mamlakatlar guruhidan joy olganligini ko'rish mumkin. O'zbekiston IChSida mehnat talab va kapital talab tarmoqlarning ulushi 2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra 74,8 foizni tashkil etgan.



2-rasm. Tanlab olingan jahon mamlakatlarining sanoat hayot egri chizig'i bo'ylab joylashuvi¹²


O'zbekistonning sanoatlashayotgan mamlakatlar darajasiga chiqishi uchun milliy sanoatda qo'shimcha qiymat yaratilishi imkoniyatlari jihatidan ustuvor hisoblangan texnologiyatalab va ilmtalab tarmoqlarni rivojlantirilishi talab etiladi. Shu bilan birga, IChS tarmoqlarida ishlab chiqarish vositalari va yangi mahsulot texnologiyalarini yaratishga o'tish uchun sanoatlashuvning uzoq muddatga mo'ljallangan strategik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish kerak bo'ladi.

¹² Muallifning tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan. Manba:Gürleşel, F. (2009). "Global Sanayi Eğilimleri ve Türkiye İçin Değerlendirme". İstanbul Sanayi Odası Yayını, 31 s.

Dissertatsiyaning “O‘zbekistonda transformatsiyalashuv jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari va muammolari” deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda tarkibiy transformatsiyalashuv tendensiyalari, milliy sanoatda tarkibiy o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi asosida IChS tarmoq tarkibi texnologik intensivlik mezonlari asosida baholangan.

O‘zbekistonda 2000–2023-yillarda iqtisodiyotda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ)da sanoat va qishloq xo‘jaligi sektorlarining ulushi notekis ravishda o‘zgarib borgan (3-rasm).

Tadqiqot natijalari, milliy iqtisodiyotda yaratilgan YaQQda xizmat ko‘rsatish tarmog‘ining yetakchi tarmoq ekanligini va keyingi yillarda tarmoq ulushining yanada ortib borganligini, natijada mamlakatimizdagi tarkibiy transformatsiyalashuv tendensiyalari Klark-Fisherning “Uch sektor” modeliga mos tushmaganligini ko‘rsatmoqda.



3-rasm. Iqtisodiyot tarmoqlarining YaQQdagi ulushini o‘zgarish dinamikasi, 2000-2023 y.y., (%da)¹³

Hozirgi kunda xizmat sektori ulushining yetakchiligiga asoslangan iqtisodiy tarkib ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda yuzaga kelgan tarkibiy muammolardan biri hisoblanadi va iqtisodiy adabiyotlarda “erta sanoatsizlashuv” (premature deindustrialization) iborasi bilan tilga olinmoqda. Tadqiqotlar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dastlab kuchli IChS sektorining yaratilishi barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy shartlaridan biri ekanligini ko‘rsatmoqda. An‘anaviy xizmat ko‘rsatish sektori drayverligiga asoslangan iqtisodiy tarkib esa mavjud resurslardan foydalanish samaradorligining pasayishiga, inqirozlar va tashqi ta’sirlarga qarshi zaif iqtisodiy tuzilmaning shakllanishiga olib kelishi ilgari surilmoqda¹⁴. Yuqoridagilardan kelib chiqilsa, hozirgi kunda milliy iqtisodiyotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan tarkibiy islohotlarni jadallashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlangan.

¹⁴ M. Çetinkaya, G. Muratoğlu. Ekonomik Dönüşüm Sürecinde Sanayisizleşme ve Yeniden Sanayileşme. Üçüncü Sektör Sosyal Ekonomi Dergisi. 55(3) 2020. 1369-1394. Rodrik, D. (2016). Premature Deindustrialization. Journal of Economic Growth, 21(1), 1-33.

ICHsda yaratilgan qo‘shimcha qiymatni belgilovchi eng asosiy omillardan biri sanoatda qo‘llaniladigan texnika-texnologiya darajasidir. Tarkibiy o‘zgarishlar texnika-texnologiyadagi o‘zgarishlar bilan mutanosiblikda yuzaga chiqadi va mehnat unumdorligining ortishiga olib keladi.

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlar natijasida, iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi asosida IChS tarmoq tarkibini texnologik intensivligiga ko‘ra yuqori, o‘rta-yuqori, o‘rta-quyi, quyi guruhlariga ajratilgan holda baholandi (3-jadval).

3-jadval

O‘zbekistonda texnologiya darajasiga ko‘ra IChS tarmoq tarkibi ulushining o‘zgarishi, 2012-2023 y.y., (%da)¹⁵


Yillar/texnologiya darajasi	Yuqori	O‘rta-yuqori	O‘rta-quyi	Quyi
2010	2,1	21,7	30,5	45,7
2011	2,3	20,7	30,0	47,0
2012	2,4	22,2	29,1	46,3
2013	1,4	23,7	28,7	46,2
2014	1,4	23,0	28,4	47,2
2015	1,6	19,6	27,3	51,5
2016	1,8	16,0	27,1	55,1
2010-2016 yy dagi o‘zgarish	- 0,3	-5,7	-3,4	9,4
2017	1,9	21,2	28,8	48,1
2018	1,4	27,8	32,1	38,7
2019	1,6	25,3	36,6	36,5
2020	1,9	22,4	39,9	35,8
2021	2,6	20,3	39,7	37,4
2022	2,1	23,1	36,8	38,0
2023	1,4	24,8	37,5	36,3
2017-2023 yy dagi o‘zgarish	- 0,5	3,6	8,7	-11,8

O‘zbekiston IChSida 2017–2023-yillarda yuqori texnologiyali tarmoq ulushi notekis ravishda o‘zgarib borgan va 2017-yilda 1,9 foizdan 2023-yilda 1,4 foizga yoki shu davr oralig‘ida 0,5 foizga kamaygan, o‘rta-yuqori tarmoq ulushi 21,2 foizdan 24,8 foizga, o‘rta-quyi tarmoq ulushi 28,8 foizdan 37,5 foizga ko‘tarilgan, yoki ushbu davrda tarmoqlar ulushining o‘zgarishi mos ravishda o‘rta-yuqori tarmoqda 3,6 foizga, o‘rta-quyi tarmoqda 8,7 foizga ortgan. Ushbu davr mobaynidagi bunday ijobiy tendensiya quyi tarmoq ulushining 48,1 foizdan 36,3 foizga tushganligi, ya’ni 11,8 ga kamayishi hisobiga yuz bergan.

2023-yilga kelib, IChSda yaratilgan mahsulotning eng katta ulushi quyi tarmoqdan o‘rta-quyi tarmoqqa o‘tgan, ya’ni ushbu tarmoqda mahsulot ishlab chiqarish ulushi 28,8 foizdan 37,5 foiz gacha ortib borgan. Quyi va o‘rta-quyi texnologiyali tarmoqlar ulushi 2017-yilda 76,9 foizdan 2023-yilda 73,8 ga

¹⁵ OECD-2016 klassifikatsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 275-son qarori bilan tasdiqlangan, xalqaro andozalarga muvofiq keluvchi iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi (IFUT) va O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlaridan foydalangan holda muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

kamaygan, ushbu kamayish yuqori va oʻrta-yuqori tarmoq ulushining 2017-yilda 23,1 foizdan 2023-yilda 26,2 foizga ortishi hisobiga yuz bergan (4-rasm).



4-rasm. Texnologiya darajasiga koʻra IChS tarmoq tarkibining oʻzgarish dinamikasi, 2010-2023 y.y., (%da)¹⁶

Ushbu tahlillar 2017–2023-yillarda Oʻzbekiston IChS texnologik intensivligiga koʻra tarkibiy tuzilishida ijobiy sifat oʻzgarishlari yuz berganligini koʻrsatadi. Tarmoq tarkibida texnologiya darajasi yuqori boʻlgan tarmoqlarning texnologiya darajasi nisbatan past boʻlgan tarmoqlar hisobiga oʻsib borishini ijobiy tendensiya sifatida baholash mumkin. Shu bilan birga, tahlil davri mobaynida IChS tarkibiy tuzilishining texnologik intensivligiga koʻra quyi va oʻrta quyi tarmoq (74,8 foiz) drayverligiga asoslanganligi, tahlil davri mobaynida yuqori va oʻrta yuqori tarmoq ulushidagi ijobiy oʻzgarishlarning jadal sanoatlashuv talablari darajasida yuz bermaganligi mamlakatimizda mavjud iqtisodiy potensialdan toʻliq foydalanilmaganligini koʻrsatadi.

Tarkibiy oʻzgarishlarning eksportga taʼsiri mamlakat eksporti hajmida sanoat tovarlari nisbiy ulushining ortishi bilan yuzaga chiqadi. Bunday rivojlanish tendensiyasi oʻz navbatida eksport tovarlari nomenklaturasi va tashqi bozor geografiyasining kengayishini talab etadi. Oʻzbekiston tovar eksportida IChSning ulushi 2017–2022-yillarda notekis ravishda rivojlangan. IChSning eksportdagi ulushi 2017-yilda 26,1 foizdan 2019-yilda 19,0 foizgacha pasaygan, shundan keyin oʻsish tendensiyasi kuzatilgan va 2020-yilda 24,7 foizdan 2022-yilda 39,8 foizgacha ortib borgan. Biroq mamlakatimiz koʻrsatkichi 2022-yil maʼlumotlariga koʻra oʻrtachadan yuqori daromadli mamlakatlar koʻrsatkichi (76,5 foiz)dan deyarli ikki barobar, jahon mamlakatlari oʻrtachasi (70,6 foiz)dan 1,5 barobardan koʻproq ortda qolganligini koʻrish mumkin (4-jadval).

2019–2022-yillar oraligʻida Oʻzbekiston tovarlar eksportida IChS ulushining jadal surʼatlar bilan ortib borganligi va jahon mamlakatlari oʻrtachasi bilan oradagi

¹⁶ Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan ishlangan.

farqning qisqarib borganligini ijobiy baholash mumkin. Shu bilan birga, mamlakatimizda eksport salohiyati yuqori ekanligini hisobga olgan holda, ushbu yoʻnalishdagi islohotlarni davom ettirish va intensivligini oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

4-jadval

Oʻzbekiston va baʼzi jahon mamlakatlari tovarlar eksportida IChSning ulushi, 2017-2022 y.y., (%da)¹⁷

Mamlakatlar, mamlakatlar guruhlar/yillar	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Singapur	74,1	72,9	74,2	77,5	76,5	72,1
Indoneziya	41,9	43,1	46,3	46,6	44,9	42,7
J.Koreya	89,3	87,6	87,4	89,6	88,1	85,1
Malayziya	66,6	68,4	70,1	73,1	70,3	66,6
Turkiya	76,5	78,9	78,2	78,0	77,3	74,2
Rossiya	22,2	19,7	19,6	21,2	22,1	-
Qozogʻiston	15,2	12,3	13,1	16,1	16,8	16,9
Qirgʻiziston	28,7	27,1	22,2	17,0	19,4	56,9
Tojikiston	16,6	15,9	19,5	20,7	12,2	11,1
Oʻzbekiston	26,1	25,1	19,0	24,7	35,5	39,8
Yuqori daromadli mamlakatlar	69,2	68,7	69,0	69,1	67,6	66,3
Oʻrtachadan yuqori daromadli mamlakatlar	73,3	72,9	72,8	73,2	72,8	76,5
Oʻrtacha daromadli mamlakatlar	69,8	70,0	70,1	70,6	70,1	73,4
Oʻrtachadan past daromadli mamlakatlar	53,4	55,7	57,1	58,0	56,9	57,9
Jahon mamlakatlari oʻrtachasi	69,3	69,0	69,4	69,7	68,7	70,6

IChS texnologik darajasiga taʼsir koʻrsatish orqali uning eksport salohiyatini oshirishning asosiy omillaridan biri YaIM hajmida ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI)ga ajratilgan mablagʻlar ulushini oshirib borish hisoblanadi. Oʻzbekistonda ITTKIga sarflangan xarajatlarning YaIMdagi ulushi 2019-yilda 0,12 foizdan 2021-yilda 0,15 foizgacha oshdi. 2015-yilda har 1 million aholiga toʻgʻri keladigan tadqiqotchilar soni 407 nafarni tashkil etgan boʻlsa, 2021-yilga kelib 956 nafar tadqiqotchi toʻgʻri keldi¹⁸. Biroq, hozirgi kunda barqaror ilmiy texnologik rivojlanish uchun xalqaro darajada belgilangan zaruriy chegaraviy qiymatga koʻra, ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan xarajatlarning YaIMdagi ulushi 1 foizdan yuqori boʻlishi, 1 million aholiga toʻgʻri keladigan tadqiqotchi soni esa 1500 nafardan ortiq boʻlishi talab etiladi. Rivojlangan mamlakatlarda ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan xarajatlarning YaIMdagi ulushi 2 foizdan yuqori, 1 million aholiga toʻgʻri keladigan tadqiqotchi soni 4 000 nafardan yuqori hisoblanadi¹⁹. Yuqoridagi tahliliy maʼlumotlar hozirgi kunda YaIMdan ITTKIga ajratilayotgan moliyaviy ajratmalar miqdorini bosqichma-bosqich oshirib borish, ajratilayotgan mablagʻlarning samaradorligini oshirish, ushbu sohaga xususiy sektorni jalb etilishini ragʻbatlantirish strategik jihatdan dolzarb vazifa ekanligini koʻrsatadi.

Dissertatsiyaning “Oʻzbekistonda tarkibiy transformatsiya jarayonlarining barqaror iqtisodiy oʻsishga taʼsirini oshirish imkoniyatlari” deb nomlangan

¹⁷ Jahon banki maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. Manba: <https://data.worldbank.org>.

¹⁸ Oʻzbekiston 2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish toʻgʻrisidagi ixtiyoriy milliy hisoboti (ikkinchi). T.-2023. 86-87 b.

¹⁹ Yücel. Bilim-teknoloji politikaları ve 21- yüzyıl toplumu. <http://ekutup.dtp.gov.tr/bilim/>. 5-6 s.

uchinchi bobida Sharqiy Osiyo mamlakatlari transformatsiyalashuv tajribasi Janubiy Koreya misolida tizimli ravishda o'rganilgan. Shu bilan birga, O'zbekistonda IChSning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'sirini ekonometrik modellashirish asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari keltirilgan.

Empirik tadqiqotda O'zbekistonda IChSning iqtisodiy o'sishga ta'sirini korrelyatsion va regression modellar asosida tahlil qilish va rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash asosiy maqsad sifatida belgilandi. Dastlab, mamlakatimizda YaIM o'sishiga ta'sir qiluvchi omillar sifatida sanoat ishlab chiqarishi, IChS, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining o'zaro bog'lanishlar zichligini ifodalovchi korrelyatsion bog'liqlik matritsasi tuzildi. (5-rasm).



5-rasm. Korrelyatsion bog'liqlik matritsasi²⁰

Korrelyatsion bog'liqlik matritsasiga ko'ra, YaIM hajmining o'zgarishi sanoat ishlab chiqarishi hamda IChS hajmiga yuqori darajada bog'liq bo'lib, ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanishlar zichligi sanoatda 0,65 ni, IChSda 0,60 ni tashkil etgan. Iqtisodiyotga jalb etilgan investitsiyalar hajmi hamda sanoat ishlab chiqarishi va IChS o'rtasidagi bog'lanishlar zichligi mos ravishda 0,92 va 0,93 ga teng bo'lgan.

Tadqiqotimizning keyingi bosqichida mamlakatimiz statistik ko'rsatkichlari asosida Kaldorning birinchi qonuni ($Y = \alpha + \beta_1 X_1 + u$)dan kelib chiqib bir necha usullarda empirik tadqiqotlar olib bordik (5-jadval).

5-jadval

Regression tahlil natijalari²¹

	O'zgaruvchilar	Koeffitsiyent	Standart xatolik	t-statistik	Ehtimolligi (P-qiyamat)	Regressiya statistikasi	
						takomillash tirilgan R-kvadrat	kuza tish lar
1-test	Intercept	-576.5303393	348.082036	-1.65630593	0.11067794	0.563984276	26
